



## XITOIY SHOIRASI 冰心 BING SIN SHE'RLARINING LINGVOPOETIK TADQIQIGA DOIR

Sodiqova Dilafroz Azimjon qizi  
TDSHU, Tarjimashunoslik, tilshunoslik va  
xalqaro jurnalistika oliy maktabi o'qituvchisi

**Аннотация.** XX- asr xitoy adabiy muhitida ayollar she'riyatining tutgan o'rni beqiyos. Ayniqsa, mashhur nosir va shoira, o'qituvchi va tarjimon, xitoy xalqining sevimli qizi 谢冰心 Xie Bing Xin ijodini o'rganish, she'rlarini lingvopoetik tahlilga tortish orqali o'sha davr ijodiy muhitini, xitoy tili xususiyatlarini, mamlakat ayollarining orzu, maqsadlari, ichki dunyosini tom ma'noda asl bo'yoqlar bilan aks ettirgan bo'lamiz. Shu kungacha Bing sin ijodi o'zbek tilida chuqur tadqiq etilmagan. Ayniqsa lingvopoetik jihatdan o'rganilmagan. Ijodining aksariyat qismi ingliz va rus tillariga o'girilgan, xorijiy tillarda Bing Sin she'riyati bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Biroq, ona tilimizga uning ayrim she'rlarigina tarjima qilingan.

Ushbu maqolada shoiraning "bahor" haqidagi she'rlari lingvopoetik tahlilga tortilgan, stilistik xususiyatlari bayon etilgan va xitoy tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan. Ijodkor she'rlaridagi konnotativ ma'noni ifodalab kelgan til vositalarining xususiyatlarini tahlil qilish, she'rlarida qo'llanilgan badiiy san'atlar, ritorik so'roqlarning o'rnini belgilash, shuningdek, sintaktik parallelizm xususiyatlarini ochib berish, badiiy obrazlar sistemasining yoritilishi asosiy vazifalarimizdan biridir.

**Калит so'zlar:** lingvopoetik tahlil, ritorik so'roq, epitet, apostrofa, leksik qaytariq, sintaktik parallelizm.

## К ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКОМУ ИЗУЧЕНИЮ СТИХОВ КИТАЙСКОЙ ПОЭТЕССЫ БИН СИНЬ

**Аннотация.** Роль женской поэзии в китайской литературной среде XX века бесподобна. В частности, изучив творчество известной писательницы и поэтессы, педагога и переводчицы, любимой дочери китайского народа Си Бин Син, подвергнув лингвопоэтическому анализу её стихи, творческую среду того времени, особенности китайского языка, мечты и цели женщин страны, мы в буквальном смысле отразим внутренний мир оригинальными красками. До сих пор творчество Бинг Сина на узбекском языке досконально не изучено. Особенно с лингвопоэтической точки зрения оно не изучалось. Большинство её произведений переведено на английский и русские языки, а также по поэзиям Бинг Сина, проводятся научные исследования на иностранных языках. Однако, лишь некоторые из её стихов переведены на наш родной язык.

**В данной статье** стихи поэтессы о «Весне» анализируются в лингвопоэтике, описываются их стилистические особенности, а также они переведены с китайского



на узбекский язык. Нашей первоочередной основной задачей является - проанализировать особенности языка В Ы Х средств, выражающих коннотативный смысл в стихотворениях поэта, определить место риторических вопросов, художественных приёмов используемых в его стихотворениях, а также выявить особенности синтаксического параллелизма, осветить систему художественных **О Б Р А З О В**.

**К л ю ч е в ы е с л о в а:** лингвопоэтический анализ, риторический вопрос, эпитет, апостроф, синтаксический параллелизм.

## TO THE LINGUAPOETIC STUDY OF THE POEMS OF THE CHINESE POETESS BIN XIN

**Abstract.** *The role of women's poetry in the Chinese literary environment of the 20th century is incomparable. In particular, having studied the work of the famous prose writer and poetess, teacher and translator, the beloved daughter of the Chinese people, Xie Bing Xin, subjecting her poems to a linguapoetic analysis, the creative environment of that time, the characteristics of the Chinese language, the dreams and goals of the women of the country, we will literally reflect the inner world original paints. Until now, the work of Bing Sin in the Uzbek language has not been thoroughly studied. It has not been studied especially from a linguapoetic point of view. Most of his works have been translated into English and Russian, and scientific research is being conducted on Bing Xing's poetry in foreign languages. However, only a few of her poems have been translated into our native language.*

*In this article, the poetess's poems about "spring" are analyzed in linguopoetics, their stylistic features are described, and they are also translated from Chinese into Uzbek. Our main tasks are to analyze the features of linguistic means expressing the connotative meaning in the poet's poems, to determine the place of rhetorical questions, artistic techniques used in her poems, as well as identifying the features of syntactic parallelism and illuminating the system of artistic images is one thing.*

**Key words:** *linguapoetic analysis, rhetorical question, epithet, apostrophe, syntactic parallelism.*

谢冰心Xiè bīng xīn (1900-1991) nafaqat Xitoy xalqining mashhur shoirasi, balki serqirra ijodkor essenavist, tarjimon, shuningdek, bolalarning sevimli yozuvchisi hamdir. Bing Sin 1900 yil 5 oktyabrda 福建省Futszyan provinsiyasining 福州 Fuchjou shahrida tug'ilgan. Bingxin bolaligini 山东 Shandun provinsiyasida, dengiz qirg'og'ida, sevgi va o'zaro tushunish hukmron bo'lgan boy va do'stona oila davrasida o'tkazdi. Butun hayoti davomida shoir o'z xotirasida, eng kichik tafsilotlarigacha, bolaligidagi voqealarni va unga yaqin odamlar bilan bog'liq bo'lgan narsalarni saqlab qoldi.

U Pekinda va Amerikada tahsil olgan. 1926 yilda AQShda adabiyot magistri ilmiy unvoniga sazovor bo'lgan. Bing Sin o'z ijodiy faoliyatini 1921 yildan so'ng boshlagan. O'z vataniga qaytib, Bingxin keyinchalik AQShda tanishgan kishisi taniqli etnograf 吴文藻 Wúwénzǎo (1901-1985) bilan turmush qurgan. Bingxin Pekin universitetlarida dars bergan.



1945 yildan boshlab u oilasi bilan Yaponiyada yashagan. 1949-1950 yillarda Tokio universitetida zamonaviy xitoy adabiyotidan dars bergan. Uning she'rlarida yapon she'riyati, xokku va tanka an'analari, shu bilan birga hind shoiri R.Tagorning uslubiyati ham aks etgan. U Xitoyda birinchilardan bo'lib “小诗” qisqa she'rlar(xiaoshi) yozgan. Shoiraning bu janrda yozilgan “Yulduzlar”,“Bahor suvlari” to'plamidagi she'rlarida mavhumlik va hayoliylik hislari aks etgan. 1951 yilda Bingxin Xitoyga qaytib keladi. 1960-yillardan boshlab esa bolalar adabiyotiga alohida e'tibor qaratdi. U Ba Jin, Lao She va Tian Chi-i lar bilan yaqindan tanish bo'lgan. Uning 冰心“Bīngxīn” tahallusi aslida "muzli yurak bekasi" degan ma'noni anglatadi. Ya'ni yurak muz kabi yorqin va shaffof. Bu qalbning pokligi hamda ichki va tashqi hotirjamlikka ishoradir. O'zbek tiliga bu nomni “toza qalb sohibasi” deya tarjima qilish mumkin.

Nominal ravishda feodal zanjirlardan ozod bo'lgan burjua yoshlari o'zlarini ozod qilgan jamiyatni ideallashtira boshladilar. Ammo bu jamiyat unga dunyoning o'zi tasavvur qilganidek farovonlikdan yiroq ekanini tantanavor va qo'pollik bilan namoyish qildi, keyin esa yoshlar boshqa chekkaga oshiqdilar: jamiyat va uning institutlarini la'natladilar, tushkunlikka tushib, dunyoni tark etdilar. Xie Bingxin zulmatda sarson-u sargardon yurgan ana shu yoshlarning “ovozi”ga aylandi.

Bingxin hayotda barcha qiyinchiliklar va shubhalarni bartaraf eta oladigan “onalik mehri”ning buyuk kuchiga ishonadi. Aslida onaga muhabbat xitoy adabiyotidagi an'anaviy mavzu bo'lib, u konfutsiylik tamoyillariga borib taqaladi, ammo xitoylik onaning o'sha davr jamiyatidagi haqiqiy mavqei achinarli edi. Shoiraning onani madh etuvchi, umuman onalar uchun madhiya bo'lib yangragan oliyjanob satrlari konfutsiylik tarafdorlariga qattiq zarba bo'ldi. Xie Bingxin sinfiy qarama-qarshilik va ijtimoiy tengsizlikni unutdi. "Onalarni seving", - deya xitob qildi u. Bu chaqiruvlari bilan Bing sin “ayollarga tenghuquqlilik, erk bering, jamiyatda ezgulik va insonparvarlik hukm sursin” demoqchi bo'ldi. Xie Bing xinning mafkuraviy pozitsiyalari zaiflik qilsa-da, ammo uning she'riyati to'g'rilik va insoniylik g'oyalari bilan chuqur sug'orilganligi bois alohida ajralib turadi.

1954 yildan keyin u bir necha bor oliy davlat vakillik organlari deputati va Xitoy Xalq Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvi a'zosi etib saylangan. Bing xin 1999 yil 2 fevralda Pekinda vafot etdi. Quyida shoiraning 《迎春》“Marhabo bahor” nomli she'rini lingvopoetik jihatdan tahlil qilib ko'ramiz.

#### 《迎春》冰心

春来了，  
从哪里迎接她呢？  
可能听她微步的足音，  
看她美艳的衣裳，  
接她轻倩的笑语？  
她从青青的草色中来了，  
从潺潺的水声中来了，  
从拂拂的微风中来了，



从世人欣悦的微笑中来了。

我的朋友，

这不是“春”么？

她推着浓妆的世界，

转到你面前，

慰藉你，

鼓舞你，

更深的命令你。

看这美满完全的表现呵！

我的朋友！

你一定要寻见“春”么？

“春”何曾是人间的呢？

看她创造的生命罢！

新绿的草色中，

新涨的潮声里，

“春”在里边蕴藏着了！

Quyida ushbu she'arning o'zbek tilidagi tarjimasini keltiramiz:

“Ko'klam kelar... qayerda

qarshi olayin uni?

Tinglarmisiz bahorning

Nozik qadamlarini

Mo'jizaviy libosin

Ko'rgandirsiz ehtimol

Shirin suhbati bilan

Sizni ham qilgandir lol?

U yashil o'tloqlardan

ohista kelayotir

Suvlarning ovozida

Asta shivirlayotir

Mayin shabboda bo'lib

qoshimga yelayotir

Olamning bor quvonchi,

baxtlardan kelayotir...

Do'stim, aytchi sen menga,

bu emasmikan bahor?

Yorqin bo'yoqlar bilan

pardozlovchi zaminni

U yuzlanar sen tomon

taskin bermoq azmida,

Yayratadi, mahf etar



yangidan yuragingni...  
Qarang do'stim mana bu  
Chin baxtning ko'z gusiga!  
Birodarim bahorni  
ko'rmoqni istaysizmi,  
qanday yaraldi asli  
bahor ko'hna dunyoda  
u yaratgan hayotga  
bir nazar solmaysizmi  
yam-yashil o'tloqlarda  
bahor atri mujassam  
dengiz hayqirig'ida  
ko'klam navolari jam!"  
"Bahor" ko'ngil tubida-  
ichkarida joylashgan!

*(D.Sodiqova tarjiması)*

Ushbu she'rda shoira Bing xin ham she'r boshidan oxiriga qadar tashxis san'ati ya'ni apostrofani mohirona qo'llagan. Apostrofa (yunoncha: ἀποστροφή) jonlantirishning bir ko'rinishi bo'lib, jonsiz narsa yoki hodisaga jonli narsa hodisadek murojaat qilish yoxud yo'q shaxsga xuddi bordek qarash demakdir. Se bin sinnning 《迎春》 nomli she'ri o'zbek shoirasi Zulfiyaning ijodidan o'rin olgan "Bugun tunda kelarmish, Bahor" she'ri bilan mazmunan juda ham yaqin. Har ikkisi ham bahor faslini qarshi olishga bag'ishlangan. Har ikkisi ham emotsional satrlarga boy.

春来了,  
从哪里迎接她呢?  
可能听她微步的足音,

Bu yerda "bahorning kelgani, shoiraning uni qayerda kutib olish haqida o'ylashi" jonlantirishni yaqqol namunasidir. Shoiraning boshqalarga ham "uning yengil qadam tovushlarini eshityapsizmi" deya murojaati ko'z o'ngimizda go'zal bahor suratini yanada yorqinroq tasvirlaydi.

看她美艳的衣裳, satridagi 美艳的衣裳 měi yàn de yīshang "mo'jizaviy, maftunkor libosi" so'z birikmasi epitet vazifasida kelgan. Sifatlash ya'ni epitet tropning bir turi bo'lib, unga badiiy obrazlilikni ta'minlovchi tasviriy vosita sifatida qaralgan. Sifatlash umumslubiy vosita. Binobarin, nutqning barcha turlarida bu vositadan foydalaniladi. U narsa, hodisaning biror xususiyatini belgi sifatida alohida ta'riflash vazifasini bajaruvchi tasviriy vositadir. Sifatlashlar mohiyatan aniqlovchilarga yaqin bo'lib, aniqlovchilardan emotsional ta'sirchanligi, badiiy nutqqa xosligi jihatidan farqlanadi. Sifatlash tropning metafora va metonimiyaga yaqin bo'lgan turi bo'lib, uni badiiy aniqlovchi deyish mumkin.

可能听她微步的足音; savollari esa ritorik so'roq gaplar bo'lib, shoira "bahorning qadam tovushlari, shirin suhbatini"ni eshitdingizmi deya o'quvchiga murojaat qilyapti. Yana shu gaplarning o'zida jonlantirish san'atini qo'llayapti. Shuningdek, Wēi bù de zúyīn,





“mikroqadamtovushlar” bu idioma, 轻倩的笑语Qīng qiàn de xiàoyǔ “maftunkor tabassumlar” bular epitetni hosil qilib kelyapti. 微步的足音Bu frazeologizm Konfutsiy klassikalaridan biri "Gu Liang Zhuanning “Yin Gong, yetti yil” asaridan olingan. Kitobda qirol hokimiyatini hurmat qilishga urg‘u berilgan. Unda aytilishicha, har bir shoh va vazirning o‘z vazifalari va axloq qoidalari bor. Yuqori va quyi qatlam o‘rtasida qat‘iy farq joriy qilingan. Kitobda qayd etilishicha, bu hikoya Lu davlatidan Bo Jining nikohi tafsilotlarini tasvirlaydi va mavqei past va gapirishga arzimaydigan elchilarga munosabati tasvirlanadi. Bu o‘sha davr jamiyatining turli qatlamlarga turlicha munosabatini, shuningdek, narsalarni mensimaslikni aks ettiradi.

接她轻倩的笑语？Aslida 轻Qīng so‘zi “yumshoq, ezgu, mayin” deb tarjima qilinadi. 倩qiàn esa “go‘zal, ajoyib, maftunkor” ma‘nolarini beradi. O‘zbek tiliga tarjima jarayonida har ikki sifatning ma‘nosini uyg‘unlashtirgan holatda “shirin” so‘zi yaratilyapti. Bu satrdagi “笑语” xiao yu- “so‘zlashayotgandagi tabassum” deb o‘zbek tiliga tarjima qilinadi, u xitoy tiliga xos so‘z birikmasi bo‘lib, gaplashayotganda biroz jilmaygan odamni tasvirlashni anglatadi. 接她轻倩的笑语 jumlasidagi 接jiē fe‘li qarshi olmoq, tutib olmoq, tarqatmoq, birlashmoq kabi ma‘nolarni ifodalaydi. Bu esa shirin suhbatidan bahramand bo‘lish badiiy ifodasini beradi.

她从青青的草色中来了， u yashil o‘tloqlardan keldi

从潺潺的水声中来了， suvlarning shivir-shivir ovozidan keldi

从拂拂的微风中来了， yumshoq shabadadan keldi,

从世人欣悦的微笑中来了。 dunyoning quvonchli tabassumlaridan keldi.

Bu yerda sintaktik parallelizm qo‘llanilgan. Bir xil shakllangan gaplar badiiy nutq ta‘sirchanligini boyitish bilan birga ma‘noni kuchaytirishga, fikrning atroflicha, batafsil ifodalanishiga, tasvir obyekti bilan bog‘liq ma‘lumotlar fondining kengayib borishiga xizmat qiladi. Ushbu to‘rtlikda bahorning qayerdan kelganligiga bandma-band izoh berib borilgan. “中来了”dan keldi so‘zi esa leksik qaytariq ya‘ni epifora vazifasida kelgan. Bu tovush kombinatsiyasining takrorlanishi, nutq tuzilmalarining oxirida qo‘llaniladigan so‘zlar. Bu nutqning izchilligini kuchaytirishga va matndagi eng muhim fikrlarni taqsimlashga xizmat qiladi.

我的朋友，这不是“春”么？Do‘stim, bu bahor emasmi, satri ritorik so‘roq gapni ifodalab kelgan. Bunday gaplar she‘rning emotsional-ekspressivligini ta‘minlovchi uslubiy vosita bo‘lib, monologik va dialogik nutqlarda qo‘llaniladi. Tinglovchidan javob talab etmaydi. Shoira ham o‘z hayratini, quvonchi va ko‘tarinki kayfiyatini shu so‘zlar orqali tasvirlamoqda.

她“推着浓妆的世界”，转到你面前 “ko‘z o‘nggingda, yorqin pardoz qilgan dunyoni paydo qiladi” ushbu satrda muallif bahorga nisbatan: “yorqin pardoz qiluvchi” degan yana bir yana epitetni keltirib o‘tadi. Bahorni “pardozchi”ga qiyoslaydi. Bunda yana jonlantirish san‘atidan foydalanadi.

慰藉你 senga taskin beradi

鼓舞你 ilhomlantiradi, zavq beradi



更深深的命令你 seni tobora boshqarib boradi

Bu yerda ham yana sintaktik parallelizmga guvoh bo'lamiz. Shuningdek bahor o'zining bir qator sifatleri bilan shaxsga qiyoslanmoqda. Yana jonlantirish -tashxisni ko'rishimiz mumkin.

看这美满完全的表现呵！satrida muallif “美满完全的» měimǎn wánquán de – “baxtlar uyg'unligi aks etgan, mukammal ifoda(hilqat)”ga hammani qarashga undaydi. Bahorni kishi qalbiga mukammal baxt, quvonch bag'ishlashini ta'kidlaydi.

我的朋友！你一定要寻见“春”么？bu qatorda “Do'stim, sen bahorni topishni istaysanmi” deya takroriy so'roq, his-hayajonga boy ritorik gaplar keltiriladi. Shoirsa so'ng “春”何曾是人间的呢？» insoniyat dunyosida qanday yaraldi aslida bahor fasli, 看她创造的生命罢！u yaratgan hayotga bir nazar solingchi, deya qayta-qayta tinglovchiga murojaat qiladi.

She'r so'nggida muallif o'zining savol-murojaatlariga o'zi qisqa javob keltirib o'tadi. U bahorni “新绿的草色中” yam-yashil o'tloqlardan, “新涨的潮声里” dengiz to'lqinlarining hayqirig'idan topish mumkinligini aytib o'tadi. Oxirgi satrda esa shoirsa “春”在里边蕴藏着了！bahor aslida “ichkarida joylashganini” ta'kidlaydi. “里边” Lǐbian so'zi serqirra ma'no ifodalaydi. Bu jumla orqali “bahor”ni o'zi naqadar sevishini, “bahor” uning uchun baxt-saodatlar, ilhom manbai ekanligini o'zgalarga aytmoqchi bo'ladi. O'quvchi esa shoiraning “bu siridan voqif bo'lgach”, ushbu ijodkor qalbini bahor singari nechog'lik go'zal va maftunkor ekanligini chuqurroq anglab yetadi.

Bing xin baxtni bahor tashrifida his qiladi. Bing xin bahorda baxt va quvonch, ezgulik, yoshlik shiddati, nafosatni ko'radi. Bing Xin hayoti davomida o'zining she'r yoza olmasligini va she'r yozmasligini ko'p bora aytgan. Uning she'riyati lirikaga ko'proq mos keladi. Mashhur adib va tarjimon巴金Ba jin Bing xin haqida: “冰心是世纪同龄人，一生都伴随着世纪风云变幻，一直跟上时代的脚步，坚持写作了七十五年。她是新文学运动的元老。” “Bing Xin - asrning zamondoshi. U hamisha zamon bilan hamnafas bo'lib, yetmish besh yil davomida tinmay yozdi. U “Yangi adabiyot” harakati faxriysi” deya hurmat va ehtirom bilan yozadi.

Uning 小诗 “kichik she'rlari” son-sanoqsiz kitobxon va yozuvchilarni o'ziga maftun etgan va romanlaridan ham jozibaliroqdir. Bahor haqidagi she'rlarida u yer yuziga bahorni qaytarmoqchi bo'ladi, bahor bilan nafaqat dunyoni, balki qalblarni ham go'zallashtirmoqchi bo'ladi. Bu kabi she'rlari odamlarga bir vaqtning o'zida ham sog'inch, ham hayrat va sevinch bag'ishlaydi. Bu go'zal she'rlar shoiraning bahoriy kayfiyati ko'zgularidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Йўлдошев М. Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи. ДД. – Т., 2009.
2. Мирзаев И. Лингвопоэтик таҳлил–ижодий тафаккур соҳибини тайёрлашнинг бирламчи омили эканлиги ҳақида. Илмий тўплам 3-том. –Т.:ЎзМУ нашри, 2006, 81-83-б.



3. Рихсиева Г. Лингвопоэтик тадқиқ асослари бўйича мулоҳазалар//ЎТА. –Т., 2003. –№2(4).–Б. 84-86.
4. Захарова, Н.В. Женская тема в творчестве Бин Синь // Проблемы литератур Дальнего Востока. Материалы V Международной научной конференции: В 3 т. — СПб.: Изд-во С.-Петербургского ун-та, 2012. — Т. 2. — С. 93– 97.
5. 冰心. 繁星 (Бин Синь. Мириады звезд). — [Шанхай]: Изд-во Шанъу иньшугуань, 1923. — 90 с.
6. 冰心全集第一卷。福建。1994年
7. 冰心全集第二卷。福建。1994年
8. <http://www.baidu.com>
9. <http://www.litres.ru>
10. <http://www.academia.edu>